



Xalq so'zi

O'zbekiston —
kelajagi
buyuk
davlat

2026-YIL – MAHALLANI RIVOJLANTIRISH VA JAMIYATNI YUKSALTIRISH YILI

1991-yil 1-yanvardan chiqa boshlagan

WWW.XS.UZ

E-mail: Info@xs.uz

2026-yil 24-yanvar, № 16 (9187)

Shanba

Saytimizga o'tish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.



O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Matbuot xizmati surati.

TINCHLIK, BARQARORLIK VA OBODLIK SARI

2026-yil 22-yanvar dunyoda yana bir xalqaro tuzilma – Tinchlik kengashi rasman faoliyat boshlagan kun bo'lib insoniyat tarixiga kirdi. Keyingi yillarda xalqaro maydonda ro'y berayotgan siyosiy ziddiyatlar, iqtisodiy inqirozlar fonida bunday global miqyosdagi tashkilotning tuzilishi dunyo hamjamiyati tinchlik yo'lida birlashishga qaror qilganidan dalolatdir.

Munosabat

O'zbekiston Prezidenti ham Tinchlik kengashining ta'sischilaridan biri sifatida uning nizomini imzolagani haqidagi xabar yurtimiz jamoatchiligi tomonidan mamnuniyat bilan kutib olingani, shubhasiz. Bu katta siyosiy jarayon mamlakatimizning kengash faoliyatida izchil ishtirok etishga, barcha ta'sischi davlatlar va xalqaro sheriklar bilan yaqin hamkorlikda uning vakolatlarini hayotga tatbiq qilishda amaliy hissa qo'shishga tayyorligini bildiradi.

Tinchlik kengashining tashkil etilishi O'zbekiston tashqi siyosatining tinchlikni ta'minlash yo'lidagi hayotiy tashabbuslari, ko'p qirrali hamkorlikni qo'llab-quvvatlashga yo'naltirilgan ustuvor vazifalariga mosdir.

O'zbekiston dunyo miqyosidagi xalqaro tashkilotning ta'sischilaridan biri bo'lishi, bu – so'zsiz davlatchiligimiz tarixida yangi sahifa ochilganini anglatadi. Yangi O'zbekiston nafaqat Markaziy Osiyoda, balki butun Yer

yuzida tinchlik va do'stona muhit hukmron bo'lishining mustahkam tarafdoridir.

Albatta, bu yo'lida O'zbekiston xalqining chinakam xohish-irodasi ifodasi sifatida davlatimiz rahbari yuritayotgan faol tashqi siyosat alohida o'rin tutishini ta'kidlab o'tish lozim.

Shu o'rinda yana bir jihatga e'tibor qarataylik. Tinchlik kengashi BMTning Xavfsizlik Kengashi rezolyutsiyasi bilan qo'llab-quvvatlangan G'azo sektoridagi mojaroni tugatish bo'yicha kompleks rejani amalga oshirish doirasida shakllantirilmoqda. Ya'ni kengash mojaroning keskinlashuv xavfini kamaytirish, G'azo sektorida iqtisodiy va ijtimoiy tiklanish uchun qulay sharoitlar yaratishga qaratilgan. Bu farovon iqtisodiyot va tinch-osoyishta hayotga ega Yangi G'azoni barpo etish, istiqbolida to'la huquqli Falastin davlatini tuzish imkoniyatini vujudga keltiradi. Kengash tarkibidan jahonning turli mamlakatlardan nufuzli va ta'sirga ega yetakchilar o'rin olgani uning xalqaro ahamiyatini yanada oshirishi muqarrar.

Tinchlik, barqarorlik va farovonlikni ko'zlagan hamkorlik Xalq demokratik partiyasining asosiy siyosiy pozitsiyasiga, dasturiy maqsadlariga har tomonlama uyg'undir.

G'azoda tinchlik o'rnatilib, hududning iqtisodiy va ijtimoiy jihatdan qayta tiklanishi, u yerdan o'tuvchi logistika tarmoqlarining yana faollashishi hamda xalqaro savdoning yanada rivojlanishini qo'llab-quvvatlaymiz.

Barqarorlikning birinchi talabi tinchlik ekanligiga, tinchlik bo'lmagan joyda iqtisodiy taraqqiyot ham, ijtimoiy adolat ham, siyosiy birdamlik ham bo'lmashligiga tarixda ko'p guvoh bo'lganmiz. Shu sababdan Yangi O'zbekiston dunyoda tinchlik hukmron bo'lishi, xalqlarning xotirjam va farovon yashashi tarafdori, bevosita ishtirokchisi ekanidan haqli ravishda faxrlansak arziydi.

Ulug'bek INOYATOV,
Oliy Majlis Qonunchilik
palatasidagi
O'zbekiston XDP fraksiyasi
rahbari.

XALQARO XAVFSIZLIK ARXITEKTURASINING FAOL ISHTIROKCHISI

O'zbekistonning Tinchlik kengashiga ta'sischi davlat sifatida a'zo bo'lishi navbatdagi diplomatik ishtirok emas, balki mamlakatning global siyosiy jarayonlardagi rolini sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiquvchi qaror hisoblanadi.

Mazkur a'zolik mamlakatimizga umumbashariy miqyosdagi nizolarni hal etish bo'yicha qaror qabul qilish jarayonlarida to'g'ridan-to'g'ri qatnashish imkonini beradi va O'zbekistonni xalqaro xavfsizlik arxitekturasining faol ishtirokchisiga aylantiradi.

Ayonki, keyingi yillarda mamlakatimiz tinchlik va xavfsizlik masalalarida tashabbuskor subyekti sifatida namoyon bo'lmoqda. Davlatimiz rahbarining mazkur kengash hujjatini ta'sischi sifatida imzolashi esa O'zbekistonni global kelishuvlarni shakllantirishda ishtirok etuvchi mamlakatlar qatoriga qo'shishi bilan ahamiyatlidir.

Shu bilan birga, Tinchlik kengashidagi ishtirok orqali xalqaro nizolar yuzasidan siyosiy va diplomatik

qarorlar qabul qilinishiga bevosita ta'sir o'tkazish mumkin. Bu, ayniqsa, Yaqin Sharq va unga yaqin mintaqalardagi murakkab geosiyosiy jarayonlar sharoitida alohida o'ringa ega.

Yaqin Sharq mintaqasidagi ziddiyatlar harbiy qarama-qarshilik emas, balki muvozanatli siyosiy yondashuv va ishonchga asoslangan muloqotni talab qilayotgan bir sharoitda O'zbekistonning tinchlikparvar pozitsiyasi muhim omil sifatida namoyon bo'lmoqda. Bu esa tashqi siyosatda pragmatik, uzoqni ko'zlagan va global mas'uliyatni his etgan davlat pozitsiyasining yaqqol ifodasidir.

Mazkur platforma O'zbekistonning xalqaro huquq, BMT rezolyutsiyalari va ko'p tomonlama diplomatiyani qo'llab-quvvatlash borasidagi prinsipial

pozitsiyasini amaliyotda mustahkamlaydi. O'z navbatida, bu mamlakatni xalqaro munosabatlarda adolatli, muvozanatli va har tomonlama mos sherik sifatida qabul qilinishiga ko'mak beradi.

Yana bir muhim jihati, Tinchlik kengashi doirasida gumanitar inqirozlarni yumshatish, tinch aholini himoya qilish va tiklanish jarayonlarini muvofiqlashtirish masalalariga alohida e'tibor qaratiladi. Bu jarayonlarda faol ishtirok esa mamlakatimizning insonparvarlik, tinchliksevarlik siyosatini namoyon etish imkonini yaratadi.

Pokiza AHMEDJONOVA,
xalq deputatlari Sirdaryo
viloyati Kengashi raisi,
Oliy Majlis Senati a'zosi.

MAHALLADAN BOSHLAGAN ISLOHOTLAR AHOLI DAROMADLARINI KO'PAYTIRIB, FAROVON HAYOTGA ZAMIN YARATMOQDA

Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida 23-yanvar kambag'allikni qisqartirish va aholi bandligini ta'minlash bo'yicha 2026-yilda amalga oshirilishi lozim bo'lgan asosiy vazifalar yuzasidan videoselektor yig'ilishi bo'lib o'tdi.

Davlatimiz rahbari yig'ilish avvalida 2025-yil yakunlariga qisqacha to'xtaldi.

Ta'kidlanganidek, o'tgan yilda iqtisodiyotimiz dastlabki prognozlariga nisbatan ancha yuqori sur'atlarda 7,7 foizga o'sib, yalpi ichki mahsulot hajmi 147 milliard dollardan oshdi. Iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida o'sish sur'atlari 2024-yildagiga nisbatan yuqori bo'ldi. Jalb etilgan xorijiy investitsiyalar hajmi 43 milliard dollarga, eksport esa 33,8 milliard dollarga yetdi.

Yuqori iqtisodiy faollik va o'sib borayotgan iste'mol talabiga qaramasdan inflyatsiya darajasi 2024-yildagi 9,8 foizdan 7,3 foizga pasaydi.

Iqtisodiy o'sish qanchalik barqaror bo'lsa, infratuzilmani yaxshilashga shunchalik ko'proq mablag' yo'naltirish mumkin bo'ladi. Bu esa pirovardida bandlikni ta'minlash, daromadlarni oshirish va aholi turmush farovonligini yuksaltirishga xizmat qiladi, – dedi Prezidentimiz.

Davlatimiz rahbari ortda qolgan bir yilda 366 ming oila kambag'allikdan chiqqani, aholi bandligini ta'minlash va daromadlarini oshirish bo'yicha ko'rilgan chora-tadbirlar natijasida kambag'allik darajasi 8,9 foizdan 5,8 foizga, ishsizlik esa 5,5 foizdan 4,8 foizga tushganini qayd etdi.

Bularning barchasi islohotlarimiz samarasi bo'lib, davlat va xalq o'rtasidagi ishonch tobora mustahkamlanib borayotganidan dalolat beradi. Lekin hali oldimizda qiladigan ishlarimiz juda ko'p, – dedi Prezident.

Qayd etilganidek, mahalla islohotlar qayerda ishlayapti, qayerda to'xtayapti degan savollarga aniq javob beradigan asosiy bo'g'in hisoblanadi. Agar mahallada ishsiz odam yoki kambag'al oila saqlanib qolayotgan bo'lsa, demak, islohot o'sha joyga yetib bormagan. Agar "yettillik" tizimi aholi muammosini hal qila olmayotgan bo'lsa, demak, tizim ishlayapti.

Imkoniyat bor, mablag' bor, qaror va dasturlar bor. Yetishmayotgan narsa – mas'uliyat va shaxsiy javobgarlik, – dedi davlatimiz rahbari.

Prezidentimiz mavjud imkoniyatlarni ishga solishda hokimlar va "mahalla yettilligi"da metodik bilim va amaliy tajriba yetishmayotgani, mas'ul vazirlik va idoralar esa ularga yetarli darajada ko'maklashmayotganini tanqid qildi.

Mutasaddilarga bir oy muddatda ishsizlik va kambag'allik yuqori bo'lgan mahallalar imkoniyatlarini o'rganib, eng yaxshi tajribalar asosida metodik qo'llanma ishlab chiqish topshirildi. Hokimlar esa joylarda uning ijrosini ta'minlab, aholini ish bilan ta'minlash, daromadini oshirish va ularni qiynayotgan masalalarga aniq yechim topish uchun shaxsan mas'ul bo'ladi.

Yig'ilishda joriy yil uchun 1 million nafar aholini doimiy ish bilan ta'minlash, 181 ming oilani kambag'allikdan chiqarish, kambag'allikdan xoli mahallalarning sonini 2,5 barobar oshirib, 3,5 mingga yetkazish, ishsizlik va kambag'allik darajasini 4,5 foizga tushirish vazifalari belgilab olindi.

Yig'ilishda "og'ir" tuman va mahallalarda aholini ish bilan ta'minlash va daromadini oshirish masalalari atroficha ko'rib chiqildi.

Avvalo, bunday hududlarni barqaror elektr energiyasi bilan ta'minlash zarurligi qayd etildi.

Shu maqsadda 903 ta mahallaning har birida quvvati 300 kilovatt bo'lgan kichik quyosh elektr stansiyalari qurilib, mahallalarga "beg'araz aktiv" sifatida beriladi. Ushbu stansiyalar hisobidan har bir mahallada 400 – 500 million so'm qo'shimcha daromad keltiradigan "iqtisodiy aktiv" shakllantirildi.

Olinadigan "yashil" daromadlar

"yashil" chora-tadbirlarni amalga oshirishga, xususan, ehtiyojmand xonadonlarni energiya tejamkor ta'mirlash, elektr xarajatlarini kamaytirish va turmush sifatini yaxshilashga yo'naltiriladi. Quyosh stansiyalarini ekspluatatsiya qilish ishlariga mazkur mahallalarda yashovchi kambag'al oilalar a'zolari ishga jalb qilinadi.

Bu ishlar ixtisoslashuv darajasi yuqori bo'lgan yana 1 mingta ilg'or mahallada ham amalga oshiriladi. Kichik quyosh stansiyalari tayyor holda 7 yil muddatga mahallalarga foizsiz lizing asosida beriladi.

Prezidentimiz ishsizlik va kambag'allikni qisqartirishda mahallalarning ixtisoslashuvini yanada chuqurlashtirish hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanini ta'kidladi.

Bugungi kunda 903 ta "og'ir" mahallada 100 ming gektar tomorqa va ijara yerlari mavjud. Agar hokimlar "mahalla yettilligi" bilan birgalikda suv ta'minotini yaxshilab, urug'-ko'chat bilan ta'minlab, ixtisoslashuvni tizimli yo'lga qo'ysa, aholi daromadi va turmush sharoitida keskin o'zgarish qilishi mumkinligi ta'kidlanadi.

Mahallalarda ixtisoslashuvni rag'batlantirish maqsadida qo'shimcha moliyaviy mexanizmlar joriy etiladi. Xususan, tomorqa yer egalari va dehqon xo'jaliklari uchun sertifikatlangan ko'chatlarni xarid qilish xarajatining 50 foizi byudjet hisobidan qoplab beriladi. Meva turiga qarab, "shpaler"lar uchun 20 ming so'mdan 70 ming so'mgacha subsidiya ajratiladi. Tomorqada tomchilatib sug'orishni joriy qilganlarga har 1 sotix uchun 160 ming so'm kompensatsiya to'lanadi.

Agar usta dehqonlar mahalladagi har 10 ta xonadonda eksportbop mahsulot yetishtirishni yo'lga qo'ysa, 2 million so'm, agar buni tomorqasi bor xonadonlarning kamida 30 foizida amalga oshirsa, qo'shimcha ravishda 75 million so'mdan mukofot oladi.

Shuningdek, joriy yilda 2 ming gektar o'rmon yerlari 4 ming kambag'al oilaga 50 sotixdan tutzor barpo etish uchun 10 yilga bepul ajratiladi. Pillachilik kooperatsiyasini tashkil etish uchun ehtiyojmand oilalarga 4 million so'mdan subsidiya, uyida pilla yetishtirish istagida bo'lganlarga esa xonadonni jihozlash va uskuna xaridi uchun 20 million so'mgacha foizsiz ssuda beriladi.

Yig'ilishda joriy yilda kichik va o'rta biznesni rivojlantirish uchun 140 trillion so'm kredit ajratilishi belgilangani qayd etildi.

Ochig'ini aytish kerak, hozir banklar barcha tuman va shaharlarga bir xil shartda kredit taklif qilayapti. Lekin Olmazor bilan Bo'zatovning imkoniyati va sharoiti bir xil emas. Shu bois 37 ta "og'ir" tumanda "oilaviy tadbirkorlik" dasturi doirasida kreditlar 12 foizdan beriladi, – dedi Prezidentimiz.

Barcha tumanlarda "oilaviy tadbirkorlik" bo'yicha imtiyozli kreditning eng yuqori miqdori 1,5 barobar oshirilib, 50 million so'mga yetkaziladi. Import qilingan va sertifikatlangan nasli chorva uchun 100 million so'mgacha, uy mehmonxonasi, kichik muzlatkich, mahsulotni saqlash va qayta ishlash minitexnologiyalari uchun esa 150 million so'mgacha garovsiz kredit ajratiladi.

Chegara va anklav hududda joylashgan 563 ta mahalladagi tadbirkorlik loyihalarining kredit miqdori 1 milliard so'mgacha oshiriladi. Bu maqsadda "oilaviy tadbirkorlik" dasturlariga rejalashtirilgan 3,6 trillion so'mga qo'shimcha daromad keltiradigan chuqurlashtirish uchun joriy yil

banklar tomonidan jami 17 trillion so'm kredit ajratiladi. Bunda mahsulot yetishtirishga olingan kreditning 4 foizi, uni qayta ishlash loyihalarida esa 6 foizi kompensatsiya qilib beriladi.

Hokim yordamchilarining ishini "loyihaviy yondashuv" asosida tashkil qilish zarurligi qayd etildi.

Har bir tuman kesimida "loyihaviy yondashuv" asosida amalga oshiriladigan loyihalar portfeli shakllantiriladi. "Og'ir" mahallalardagi bo'sh yer uchastkalari va davlat obyektlarining boshlang'ich narxini 2-3 barobarga pasaytirib, ularni sotuvga chiqarish amaliyoti joriy etiladi.

Ish o'rni yaratish va aholi daromadini oshirish bo'yicha eng yaxshi natija ko'rsatgan 100 ta "og'ir" mahallaga 1 milliard so'mdan qo'shimcha mablag' ajratiladi. Mazkur mahallalarda faoliyat yuritayotgan hokim yordamchilari Xitoy, Turkiya, Janubiy Koreya va Malayziya kabi davlatlarga bir oylik malaka oshirish kurslariga yuboriladi.

Misol sifatida Olmazor tumanidagi "Kaykovus" kanali bo'ylab amalga oshiriladigan loyiha keltirildi. Ushbu kanalning 2 kilometrlik qismi "Eski shahar" hududidagi 8 ta mahalladan o'tadi. Endi mazkur mahallalardagi hokim yordamchilari yagona "loyiha guruhi"ga birlashib, yaxlit konsepsiya asosida kanal bo'yida savdo, servis va dam olish infratuzilmasini rivojlantirish ishlarini amalga oshiradi.

Xuddi shu tartibda turizm, ta'lim, tibbiy xizmatlar, renovatsiya, ko'l bo'yolari va gavjum ko'chalar bo'yicha ham hokim yordamchilaridan iborat maxsus "loyiha guruhlari" tashkil etiladi.

"Mahalla yettilligi" faoliyati samaradorligini oshirish bo'yicha poytaxtda yo'lga qo'yilgan tajriba endilikda barcha tuman va shaharlarda ham joriy etiladi. Bundan buyon hokim yordamchilari, xotin-qizlar faoli va yoshlar yetakchisi mahalla raisi tadqimnomasi asosida tuman hokimi tomonidan lavozimga tayinlanadi va ozod qilinadi.

Davlatimiz rahbari yana bir muhim masalaga e'tibor qaratdi. Mamlakatimizda aholi va qishloq xo'jaligini ro'yxatga olish bo'yicha keng ko'lamli tadbir boshlangani qayd etildi.

Hozirga qadar jami 7 million 613 ming xonadondan 4 million 776 mingtasi ro'yxatdan o'tgan. Biroq ushbu jarayon Toshkent shahri, Farg'ona, Surxondaryo, Buxoro va Toshkent viloyatlarida sust kechayotgani ko'rsatib o'tildi.

Bu kabi muhim tadbir mamlakatimizda so'nggi 37 yil ichida birinchi marta o'tkazilmoqda. Ro'yxatga olish har bir mahalla va har bir oilaning real holatini aniqlash, kelgusi rejalarni shu asosda belgilash, eng muhimi, aholi turmush farovonligini oshirishga qaratilgan samarali mexanizmlarni joriy etishga xizmat qiladi, – dedi Prezidentimiz va barcha yurtdoshlarimizni ro'yxatga olish tadbirida faol ishtirok etishga chaqirdi.

Yig'ilishda tuman hokimlari, mahalla raislari va hokim yordamchilarining hisobotlari hamda takliflari tinglandi.

Shu kuni Prezident Shavkat Mirziyoyev Toshkent shahri Olmazor tumanidagi bunyodkorlik ishlari va obyektlar faoliyati bilan tanishdi.

Davlatimiz rahbari Xastimom mahallasi Zarqaynar ko'chasida tashkil etilgan turizm va xizmat ko'rsatish obyektlarini borib ko'rdi.

Turizm kam mablag' bilan ko'p ish o'rni yaratadigan, aholi daromadi va hududlar qiyovasini yaxshilaydigan soha. Toshkent shahrida bu borada imkoniyatlar ko'p.

(Davomi 2-betda).





YANGI OʻZBEKISTON DIPLOMATIYASI FENOMENI

“Hozirgi sharoitda elchi degani faqat siyosiy muloqot yurituvchi shaxs emas.

Elchi – investitsiya va texnologiya olib keladigan, yangi eksport bozorlarini ochadigan, transport-logistika yoʻlaklarini ishga soladigan, turistlar oqimini koʻpaytirib, qonuniy mehnat migratsiyasi uchun sharoit yaratadigan, eng asosiysi, fuqarolarimiz huquqlarini himoya qiladigan davlat vakilidir”. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning 15-yanvar kuni boʻlib oʻtgan Tashqi ishlar vazirligi hamda xorijdagi diplomatik vakolatxonalar faoliyati masalalariga bagʻishlangan videoselektor yigʻilishida aytgan bu soʻzlari hamkor davlatlar bilan aloqalarimizni yangicha tashkil qilish boʻyicha istiqboldagi vazifalarning asosiy yoʻnalishlarini oʻzida aks ettiradi.

Mulohaza

Jahon siyosatining muhim aktori

Hazrat Alisher Navoiyning “Bilim va donolik – insonning bezagidir”, degan hikmatli soʻzlari bor. Fikrimizcha, Oʻzbekiston Prezidenti diplomatiyasi fenomenining oʻziga xosligi aynan bilim va donolik, jasorat va bagʻrikenglik fazilatlari bilan chambarchas bogʻliq.

Gap shundaki, soʻnggi yillarda Yangi Oʻzbekiston jahon siyosatining obyektii emas, balki tomon maʼnoda faol va tashabbuskor subyektiga aylandi. Zero, XX asr boshidan toki yaqin davrlargacha Oʻzbekiston jahon siyosati obyektii boʻlgan va unga nisbatan goh “yaqin xorij”, goh “xomashyo bazasi”, goh esa “postsovet hududi” kabi bepisand “yorliq”lar qoʻllanib kelingani sir emas.

Keyingi toʻqqiz yilda Prezidentimizning qatʼiyati va pragmatik siyosati tufayli mamlakatimiz jahon siyosatida boshqalarning ortidan ergashadigan tashabbusiz obyektii hudodidan dadil chiqib oldi. Yanada eʼtiborlisi, dunyoda keskin geosiyosiy oʻzgarishlar yuz berayotgan bugungi murakkab sharoitda Yangi Oʻzbekiston xalqaro hamjamiyatga iqlimni muhofaza qilish, “yashil” iqtisodiyotni joriy etish, fuqarosizlikka barham berish, inson huquqlarini taʼminlash kabi turli sohalarida yangi gʻoya hamda loyihalarni taqdim qilayotgan jahon siyosatining faol aktori hisoblanadi. Prezidentimiz taʼbiri bilan aytganda, *“Ochiq, pragmatik, puxta oʻylangan va tashabbuskor tashqi siyosatimiz natijasida Oʻzbekiston global tinchlik va diplomatiya markazlaridan biriga aylanib bormoqda”*.

Davlatimiz rahbari tashqi siyosat borasida 2025-yil koʻp jihatdan natijador boʻlganini alohida qayd etgani bejiz emas. 2025-yilda Prezidentimizning 26 ta xorijiy davlatga oliy darajadagi tashriflari amalga oshirildi, qator davlatlar rahbarlari Oʻzbekistonga ilk bor keldi. Mamlakatimizga tashrif buyurgan davlat boshliqlari, hukumat rahbarlari va yuqori darajadagi mehmonlar bilan oʻtkazilgan qabullar soni 23 tani tashkil qildi.

Oʻtgan yil Yangi Oʻzbekiston tashqi siyosatida diplomatik munosabatlarni geografiyasi sezilarli darajada kengaygan davr sifatida namoyon boʻldi. Yil davomida mamlakatimiz Afrika, Okeaniya hamda Karib havzasiga mansub 8 ta davlat bilan diplomatik munosabatlarni oʻrnatdi.

2017-yildan buyon hisoblaganda esa xorijiy davlatlarda 16 ta yangi diplomatik va konsullik vakolatxonasi ochilib, ularning soni 60 taga, diplomatik aloqa oʻrnatilgan davlatlar soni esa 165 taga yetdi. Elchixonalar, konsullik muassasalari va xalqaro tashkilotlar huzuridagi vakolatxonalar shtatlari hamda Tashqi ishlar vazirligi xodimlarining ish haqi oshirildi.

Shuningdek, Yangi Oʻzbekiston tashqi siyosatida oʻzining amaliy natijasini yaqqol koʻrsatgan tashqi usul: telefon diplomatiyasi izchil davom ettirildi. Davlatimiz rahbari 2025-yil davomida tanliq davlat va jamoat arboblari bilan oʻzaro 50 dan ortiq telefon soʻzlashuvlarini amalga oshirdi. Bularning barchasi, oʻz-oʻzidan soʻnggi yillarda Yangi Oʻzbekistonning tashqi siyosati sohasida ham qamrovdor islohotlar olib borilganini ochiq-oydin namoyon qilib turibdi.

Shu jihatdan Prezidentimiz 2025-yil 26-dekabrda Oliy Majlis va Oʻzbekiston xalqiga taqdim etgan Murojaatnomasida davlatimizning ichki va tashqi siyosatida keyingi toʻqqiz yilda amalga oshirilgan ulkan islohotlar samaralari, shiddatli yangilanishlar natijadorligi haqida soʻz yuritgani ham bejiz emas. Shunday ekan, Tashqi ishlar vazirligi hamda xorijdagi diplomatik vakolatxonalarni faoliyati ham ayni shu mezon – natijadorlik koʻrsatkichlari boʻyicha har tomonlama teran va tizimli tahlilga tortilgani mantiqan asoslidir.

Markaziy Osiyo ruhi

Bugun Markaziy Osiyo davlatlari global va mintaqaviy siyosat kun tartibidagi koʻplab dolzarb masalalar boʻyicha yagona pozitsiyada turib harakat qilmoqda. Oʻzbekiston Prezidenti qayd etganidek, *“Mamlakatlarimiz 2017-yildan buyon Markaziy Osiyoda taraqqiyot va sheriklikning muhim masalalari boʻyicha Birlashgan Millatlar Tashkilotining 10 dan ziyod rezolyutsiyalari qabul qilinishiga erishdi”*.

Oʻzbekiston yetakchiligidan 2017-yil sentabrda BMT Bosh Assambleyasidagi ilk nuqtida bayon etilgan ahl va inoq, hamjihat va yaqin samarali qoʻshnichilik siyosati, taʼbir joiz boʻlsa, mintaqaviy siyosatga oid noyob yangi doktrinadir. Shu asosida Markaziy Osiyo davlatlari bugungi kunda dolzarb boʻlgan mintaqaviy masalalarni ochiq va samimiy muhokama qila boshladi. Natijada xalqaro siyosiy lugʻatda mintaqaviy taraqqiyotni taʼminlashga xizmat qiluvchi oʻziga xos modelni aks ettiradigan “Markaziy Osiyo ruhi”, “Yangi Markaziy Osiyo” atamalari shakllandi.

Qisqa davrda dunyoda mintaqamizga nisbatan ishonch va hamkorlikka intilish kuchaydi. Ayniqsa, Prezidentimiz eʼtirof etganidek, *“Markaziy Osiyo plyus”* formatidagi koʻp tomonlama muloqotlar sermahsul boʻldi. Soʻnggi yillarda 11 ta davlat, shu jumladan, Yevropa Ittifoqi mamlakatlari bilan strategik sheriklik munosabatlari oʻrnatilib, ularning umumiy soni 19 taga yetdi, Qozogʻiston, Ozarbayjon va Tojikiston bilan ittifoqchilik munosabatlari yoʻlga qoʻyildi.

Mamlakatimiz poxtaytida 2025-yil 16-noyabrda Oʻzbekiston Prezidenti raisligida oʻtkazilgan Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining yettinchi Maslahat uchrashuvi gʻoyat katta tarixiy ahamiyatga ega voqea boʻldi. Maslahat uchrashuvi yakunida qabul qilingan hujjatlar va ilgari surilgan tashabbuslarda barqaror,

xavfsiz va farovon Markaziy Osiyoni barpo etishdek umumiy maqsad oʻz ifodasini topgani tahsinga sazovordir.

Davlatimiz rahbari mintaqaviy hamkorlikni yanada mustahkamlash boʻyicha qator tashabbuslarni ilgari surdi. Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining Maslahat uchrashuvi koʻlami Ozarbayjon Prezidenti timsolida Kavkaz mintaqasi hisobiga yanada kengaydi.

Shuningdek, Oʻzbekiston, Tojikiston va Qirgʻiziston yetakchilarining mart oyida Xoʻjandda boʻlib oʻtgan uchrashuvida birinchi marta uch mamlakat davlat chegaralarining tutash nuqtasi toʻgʻrisidagi tarixiy shartnoma imzolandi. Shu muloqotlar yakunida “Abadiy doʻstlik toʻgʻrisida”gi deklaratsiya qabul qilindi katta ahamiyat kasb etdi.

Ayni jarayonda “mintaqaviy oʻziga xoslik” va “mintaqaning xalqaro huquqiy subyekt sifatidagi mavqei” degan yangi tushunchalar siyosiy-huquqiy lugʻatimizga kirib keldi. Bu, oʻz-oʻzidan, mintaqamizda Yangi Markaziy Osiyo diplomatiyasi shakllanish va rivojlanish pallasida ekanining oʻziga xos belgidir.

Mamlakatimizning parlament diplomatiyasi

Oʻtgan davrda davlatimiz rahbari tashabbuslari asosida Yangi Oʻzbekistonda huquq va vakolatlari sezilarli darajada kuchaygan, masʼuliyati bir necha barobar ortgan yangi xalq vakilligi tizimi shakllantirildi. Prezidentimiz taʼkidlaganidek, *“Bugungi kunda Oliy Majlisimiz eng kuchli parlamentlarga xos boʻlgan barcha nazorat vakolatlariga ega”*.

Xususan, 2023-yildan buyon tashqi qarz miqdorini parlamentimiz belgilab kelmokda. Oʻz navbatida, Oʻzbekiston Prezidentining yangi tashabbusi bilan endi davlat kafolati ostida tashqi qarz olish masalasini maʼqullash ham parlament vakolatiga oʻtkazilmokda.

Yangi Oʻzbekiston parlamenti, tomon maʼnoda, “xalq uyi”ga aylanib bormoqda. Deputatlar va senatorlar bilan muhokama qilingan barcha tashabbus va rejalarni, sessiyalarda ilgari surilgan gʻoya, maqsad va vazifalar, mohiyat eʼtiboriga koʻra, nafaqat qonunlaraga kiritilmokda, ayni chogʻda, Prezidentimizning Oliy Majlis va xalqimizga Murojaatnomalarida ham oʻz aksini topmokda.

Hozirgi vaqtda butun dunyoda parlament diplomatiyasi qonun chiqaruvchi organlarning tashqi siyosatga, tinchlik va xavfsizlikni mustahkamlashga, barqaror institutlarni rivojlantirishga taʼsir koʻrsatishining oʻziga xos mexanizmi sifatida oldingi oʻringa chiqmokda. Shu nuqtayi nazardan, 2025-yil 5 – 9-aprel kunlari Toshkentda boʻlib oʻtgan Parlamentlararo Ittifoqning 150-assambleyasi parlament diplomatiyasini mustahkamlashda muhim bosqich va institutsional xalqaro parlamentlararo hamkorlikni rivojlantirishda yangi qadam boʻldi.

Parlamentlararo Ittifoqning uyubley assambleyasini oʻtkazish joyi sifatida Toshkentning tanlanishi Oʻzbekistonning xalqaro siyosatidagi roli ortib borayotgani, koʻp tomonlamalik va ochiqlik prinsiplariga sodiqligining eʼtirofi boʻldi. Binobarin, Oʻzbekiston parlament diplomatiyasi siyosatini faol amalga oshirib, xorijiy parlamentlar va xalqaro institutlar bilan aloqalarni tobora mustahkamlamoqda.

Parlamentlararo Ittifoq Bosh kotibi Martin Chungong taʼkidlaganidek, “Oʻzbekiston dunyo boʻlinishlarga duch kelgan taqdirda ham parlament qanday qilib birdamlik maydoni boʻlishi mumkinligini namoyish etdi”. Uning soʻzlariga koʻra, “Oʻzbekiston Yevroosiyoing nafaqat geografik, balki turli xil ovozlarni ham birlashtirishga qodir boʻlgan siyosiy markazi ekanligini ham isbotladi”.

Inson huquqlari himoyasiga oʻzgacha yondashuv

Oʻzbekistonda 2030-yilgacha Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish boʻyicha qamrovdor saʼy-harakatlar izchillik bilan amalga oshirilmoqda. Bu yoʻladagi barcha intilishlarimiz BMTning har bir inson huquq va erkinliklarini taʼminlashga qaratilgan “Hech kimni unutmasilik va ortda qoldirmasilik” asosiy tamoyiliga muvofiqdir.

Mamlakatimizda 2025-yil BMTning fuqarosizlikni bartaraf etish boʻyicha tavsiyalarini bajarish borasida katta ishlar amalga oshirildi. 1991-yildan 2016-yilgacha bor-yoʻgʻi 482 kishi Oʻzbekiston fuqaroligini olgan boʻlsa, 2017-yildan 2025-yilgacha 85 mingdan ortiq kishilar mamlakatimiz fuqaroligiga ega boʻldi. Bu Oʻzbekistonning insonparvar siyosati jamiyatning hamma qatlamlarini qamrab olishga va inson qadr-qimmatini tomon maʼnoda hurmat qilishga qaratilganini yaqqol koʻrsatdi.

Bugungi kunda BMTning Inson huquqlari boʻyicha kengashi va uning maxsus mexanizmlari bilan faol hamkorlik davom etmoqda. Oʻzbekiston BMTning turli organlari tavsiyalarini asosida yetitta milliy harakat rejasini ishlab chiqdi va amalga oshirmokda.

Oʻz navbatida, 2024-yilda Oʻzbekiston birinchi marta BMT Iqtisodiy va ijtimoiy kengashi (ECOSOC) hamda Xalqaro mehnat tashkiloti (XMT) Maʼmuriy kengashi aʼzoliciga saylandi. Shuningdek, Oʻzbekiston vakili ilk bor BMT Inson huquqlari qoʻmitasiga aʼzo boʻldi.

Yangi Oʻzbekiston inson huquqlarini himoya qilish boʻyicha mintaqaviy tuzilmalarda faol ishtirok etmoqda. 2025-yilda Oʻzbekiston vakili Islom hamkorlik tashkiloti Tashqi ishlar vazirlari kengashining 51-sessiyasida IHTning Inson huquqlari boʻyicha mustaqil doimiy komissiyasi tarkibiga saylandi. Bryusselda Adliya, ichki ishlar, inson huquqlari va ular bilan bogʻliq masalalar boʻyicha “Oʻzbekiston – Yevropa Ittifoqi” kichik qoʻmitasining 21-yigʻilishi boʻlib oʻtdi. Unda inson huquq va

erkinliklarini taʼminlash, sud-huquq tizimini isloh qilish, fuqarolik jamiyati institutlarini rivojlantirish, korrupsiyaga qarshi kurashish, gender tenglik masalalari yuzasidan fikr almashildi.

Inson huquqlari – zamonaviy sivilizatsiya taraqqiyoti darajasini koʻrsatib turuvchi mezonidir. Afuski, dunyoda sodir boʻlayotgan ijtimoiy-iqtisodiy inqirozlar, geosiyosiy oʻzgarishlar va qurolli mojarolar inson huquqlari masalalariga oʻz salbiy taʼsirini koʻrsatmoqda. Maʼlumki, Vena deklaratsiyasi va Inson huquqlari boʻyicha harakatlarni dasturi har bir davlatga inson huquqlariga doir milliy harakatlarni rejalarni qabul qilishni tavsiya etgan.

Shu maʼnoda, Prezidentimiz tashabbusi asosida qayta koʻrib chiqilayotgan “Oʻzbekiston – 2030” strategiyasining yangilanayotgan loyihasi 451 ta masʼadni oʻz ichiga olgani, jumladan, 2026-yil boshidan Inson huquqlari boʻyicha Oʻzbekiston Respublikasining 2030-yilgacha boʻlgan milliy strategiyasini ishlab chiqish va tasdiqlash vazifasi koʻzda tutilgani katta ahamiyatga egadir. Bu – Yangi Oʻzbekiston tarixida inson huquqlari boʻyicha ikkinchi Milliy strategiya boʻladi.

Hujjatda Oʻzbekistonning milliy maʼruzalarini koʻrib chiqish asosida taqdim etilgan BMTning inson huquqlari boʻyicha ustav va shartnomaviy organlari tavsiyalari ham oʻz aksini topdi.

Global muloqot maydoni

Keyingi davrda Yangi Oʻzbekiston global masalalar muhokama qilnadigan xalqaro muloqot maydoni sifatida oʻzini yaqqol namoyon etmoqda. Mamlakatimiz birgina 2025-yilning oʻzida Parlamentlararo Ittifoqning 150-yubiley assambleyasiga, YUNESKO Bosh konferensiyasining sessiyasiga, “Markaziy Osiyo – Yevropa Ittifoqi” sammitiga, Xalqaro iqlim forumiga mezbonlik qildi.

Oʻzbekiston oʻz tashqi siyosatida hamkor davlatlar bilan ikki tomonlama, asosiy xalqaro tashkilotlar bilan koʻp tomonlama hamda qoʻshni mamlakatlar bilan mintaqaviy diplomatiyani rivojlantirishga alohida eʼtibor qaratmoqda.

BMTning teng huquqli va toʻlaqonli aʼzosi sifatida Oʻzbekiston tenglik, hamkorlik, koʻp tomonlamalik va xalqaro siyosiy tizimni himoya etish prinsiplariga soʻzsiz amal qilishini namoyish etmoqda. Soʻnggi vaqtlarda xalqaro nizolarga tinch yoʻl bilan yechim topish, yangi global qurolli toʻqnashuvlarning oldini olish, mamlakatlar oʻrtasida hamkorlikni yoʻlga qoʻyish, global muloqot, global harakatlarni va butun dunyoda inson huquqlarini himoya qilish kabi gʻoyalarni faol ilgari surmoqda.

Soʻnggi yillarda BMT bilan hamkorlik bemisil darajaga koʻtarilib, 160 ta qoʻshma dastur va loyiha muvaffaqiyatli amalga oshirilayotgani buning yaqqol tasdiqʻidir. Birgina 2025-yilning oʻzida BMTning asosiy tuzilmalari va institutlari, jumladan, BMT-Xabibat va YUNISEF rahbarlari Oʻzbekistonga tashrif buyurdi, Toshkentda “BMT-Ayollar” tuzilmasining vakolatxonasi ochildi.

Hech shubhasiz, Yangi Oʻzbekiston tashqi siyosatida 2025-yil nafaqat ikki, balki koʻp tomonlama munosabatlarni mustahkamlash hamda rivojlantirish borasida katta yutuqlar yili sifatida tarixga kirdi.

Faoliyat samaradorligi mezonlari

Oʻzbekiston Prezidenti jahonda keskin geosiyosiy oʻzgarishlar boʻlayotgan, davlatlar suverenitetiga xavf-xatarlar kuchaygan va mamlakatlar oʻrtasida ishonchsizlik yoʻqolib, iqtisodiy raqobatchilik tobora keskinlashayotgan hozirgi murakkab sharoitda tashqi siyosat sohasidagi faoliyatini tanqidiy muhokama qilar ekan, Tashqi ishlar vazirligi va xorijdagi diplomatik vakolatxonalarni ishini yangicha tashkil etish zarurligini alohida taʼkidladi.

Davlatimiz rahbari uqtirganidek, Yangi Oʻzbekistonning xorijdagi elchilari uchun 4 ta masala faoliyat samaradorligining mezonlari boʻlishi shart. Birinchidan – mamlakatimiz sanoati va infratuzilmalarini modernizatsiya qilish hamda rivojlantirish uchun xorijiy investitsiyalar, ilgʻor zamonaviy texnologiyalar va ilm-fan yutuqlarini faol jalb etish. Ikkinchidan – iqtisodiy diplomatiyani kuchaytirish orqali Oʻzbekistonda ishlab chiqarilgan mahsulotlarni xorijiy mamlakatlar bozorini egallashga har jihatdan koʻmaklashish. Uchinchidan – Oʻzbekistonga kelayotgan sayyohlar oqimini kengaytirish boʻyicha faol va tizimli ish olib borish. Toʻrtinchidan – mamlakatimizdan xorijiy oʻtkalariga mehnat migratsiyasi huquqiy, adolati va manfaatlari asosda yoʻlga qoʻyilishini taʼminlash. Davlatimiz rahbarining diplomatlar bilan yuzma-yuz muloqotida ayni masalalar yuzasidan atroflicha ochiq va amaliy fikrlashildi.

Yangi Oʻzbekistonning iqtisodiy diplomatiyasi oʻtgan qisqa davrda oʻzining samaradorligini amalda koʻrsatdi. Buning tasdiqʻi sifatida Prezidentimiz eʼtiborni qaratgan quyidagi raqamlarni keltirish mumkin: ikki va koʻp tomonlama tadbirlar doirasida 2025-yilda umumiy qiymati 160 milliard dollarlik investitsiya loyihalari va savdo shartnomalari boʻyicha bitimlar imzolandi, tarixda ilk bor tashqi savdo aylanmasi 80 mlrd. dollardan oshib, eksport 33.5 mlrd. dollarga yetdi, xorijiy investitsiyalar esa 43 mlrd. dollardan ortdi, oʻtgan yili 75 ta davlatga eksport hajmi qariyb 4,5 mlrd. dollarga koʻpaydi.

Shu nuqtayi nazardan, mamlakatlarimiz elchilariga Yaqin Sharq, Yevropa, Osiyo va Afrika davlatlari yoʻnalishlarida eksportni kengaytirish, sanoat, qishloq xoʻjaligi, kimyo, toʻqimachilik va xizmatlar sohalarida aniq loyihalar bilan ishlash vazifalari qoʻyildi. Ayrim bozorlarda Oʻzbekiston mahsulotlarining nomi yetarlicha tanitilmayotgani qayd etildi.

Zamonaviy diplomatiyaning Yangi Oʻzbekiston modeli

Nafaqat mamlakatimiz, balki dunyo olimlari tomonidan keng eʼtirof etilganidek, milliy davlatchiligimiz necha ming yillik qadimiy tarix va boy madaniyatga ega boʻlib, diplomatik munosabatlarni oʻtmishimizning eng chuqur qatlamlariga borib taqaladi. Binobarin, Prezidentimiz taʼkidlaganidek, *“qadimdan mamlakatimiz hududida diplomatiya anʼanalari shakllangan, ajdodlarimiz yaqin va uzoq xorij bilan doʻstlik va hamkorlikda yashashga intilganlar”*.

Darvoqe, 2022-yilda “Oʻzbekiston diplomatiyasi tarixi” kitobi chop etilgan boʻlib, bu davlatimiz rahbarining 2018-yil yanvarda Oʻzbekiston diplomatlari bilan uchrashuvda ilgari surgan tashabbuslariga amaliy javobdir. Oʻzbekiston diplomatiyasi tarixi haqida kitob nashr qilinishi katta siyosiy voqea. Ushbu kitobni xorijiy tillarga oʻgirib, nashr etish maqsadga muvofiq, deb oʻylaymiz.

Qadimgi zamonlardan boshlab bugungi kungacha – mustaqil Oʻzbekiston diplomatiyasi shakllanishi va ravnag topishigacha boʻlgan 3 ming yildan ortiq davrni qamrab olgan uzoq taraqqiyot yoʻlida Yangi Oʻzbekiston diplomatiyasi bosqichi alohida ahamiyat kasb etadi. Ushbu yangi bosqichga – taʼbir joiz boʻlsa, oʻzbek diplomatiyasining Yangi Oʻzbekiston modeliga aynan Prezident Shavkat Mirziyoyev asos solgani alohida eʼtiborga loyiq. Boshqacha aytganda, Prezidentimiz bundan 8 yil oldin Yangi Oʻzbekiston diplomatiyasining asosiy yoʻnalishlarini koʻrsatib berdi. Ayni voqeilik milliy diplomatiya sohasida yangi Rennessans davri boshlanganidan dalolat beradi.

Elchi qanday boʻlishi kerak?

Prezidentimiz diplomatlarga “davlatimiz manfaatlarini himoya qilayotgan, tashqi siyosatimizni amalga oshirishda muhim oʻrin egallaydigan, mamlakatimizning xalqaro maydondagi yuzi”, deya munosib baho berdi. Ayniqsa, davlatimiz rahbari “Diplomatiya, diplomatik – oddiy kasb emas, balki insondan juda koʻp fazilatlarini talab etadigan noyob sanʼat”, “Diplomatlar – jamiyatning eng yetuk vakillari”, shuningdek, “Elchi Prezidentning xorijdagi rasmiy vakilidir”, degan yuksak eʼtiroflarni bildirdi.

Elchilar bilan uchrashuvda Prezidentimiz “Yangi Oʻzbekiston diplomati qanday boʻlishi kerak?” degan dolzarb savolni yana bir bor kun tartibiga qoʻydi. Davlatimiz rahbarining fikrlarga qaraganda, Yangi Oʻzbekiston sharoitida, eng muhimi, diplomat haqiqiy vatanparvar boʻlishi, oʻz xalqi, oʻz yurtining chinakam fidoyisiga aylanishi zarur. Elchi oʻz davlatiga sodiqatini namoyon etish uchun mamlakatining obroʻsi va shaʼnini, shon-shuhratini, ulugʻvorligini har jihatdan ehtiyoq qilishi lozim. Haqiqiy diplomat boʻlish uchun faqat bilim va tajriba, chek tilarni bilish yetarli emas, buning uchun avvalo tugʻma isteʼdod kerak. Shu bilan birga, elchi chek mamlakatlar bilan boʻladigan munosabatlarda u yerdagi doʻstlarning xayrixohligi hamda gʻanimlarning makr-hiyasidan doimo ogoh va hushyor boʻlib turishi dardkor. Elchi oʻzbek xalqining boy tarixini, madaniyatini, milliy qadriyatlarini, vatandoshlarining dardu tashvishlarini yaqindan bilishi, ularni yurigidan oʻtkazishi farzu qarar. Oʻzbekistonning chek elchisi boʻlsayu oʻzbek tilini bilmasa, bu xalqimizga xiyonatdan boshqa narsa emas. Elchi oʻz boʻlib turgan mamlakat fuqarolarining yuragiga qanday yoʻl topishni bilishi, xususan, inson qalбини, aql qalбини, avvalo, uning madaniyati, adabiyoti va sanʼatiga, milliy qadriyatlariga hurmat-ehtirom koʻrsatish orqali zabt etish mumkinligini tadan anglashi dardkor.

Prezidentimizning ilgʻor tashabbuslari

Prezidentimiz yigʻilishda Yangi Oʻzbekiston tashqi siyosati va diplomatiyasini rivojlantirishga qaratilgan yangi tashabbuslarni ilgari surdi.

Xususan, Oʻzbekiston Respublikasining Tashqi siyosat faoliyati konsepsiyasini yangilab, uning ustuvor yoʻnalishlarini qayta koʻrib chiqish, milliy manfaatlarini himoya qilish va xalqaro maydonda mamlakatimizning oʻrniini mustahkamlashga qaratilgan aql vazifalarini belgilab olish zarur. Davlatimiz rahbari uqtirganidek, “yangi konsepsiya mamlakatimizning uzoq muddatli strategik maqsadlarini, ichki islohotlarimiz mantigʻini, iqtisodiy diplomatiya, xavfsizlik, investitsiya, eksport, transport-logistika, suv va iqlim masalalaridagi milliy manfaatlarimizni yaxit va oʻzaro bogʻliqlik holda aks ettirishi lozim”.

Shuningdek, tashqi siyosat boʻyicha kengash faoliyatini kuchaytirish, bunda tashqi siyosiy aloqalarni kengaytirish, oliy darajadagi tashriflarga puxta tayyorgarlik koʻrish, diplomatiya mutaxassislari qayta tayyorlash va istiqbolli kadrlar zakirasini shakllantirish masalalariga eʼtiborni yanada oshirish zarurligi taʼkidlandi. Tashqi axborot siyosati va mamlakat imijini oshirishda xalqaro OAV hamda maxsus medialoyihalar bilan ishlash ustuvor vazifa sifatida belgilandi.

Bundan tashqari, davlat rahbari tomonidan “Oʻzbekiston Respublikasida xizmat koʻrsatgan diplomat” faxriy unvonini taʼsis etish taklif qilindi ham juda muhim. Bu tashabbus diplomatlarimizning xizmatlarini munosib eʼtirof etishga jiddiy eʼtibor berilayotganining amaliy tasdiqʻidir.

Prezidentimiz taʼbiri bilan aytganda, *“Endi yangicha ruhda ishlaydigan, aniq natijalarga erishayotgan, Oʻzbekiston manfaatlarini xalqaro miqyosda qatʼiy himoya qiladigan diplomatlar davri keldi”*. Binobarin, Yangi Oʻzbekiston jahonda murakkab geosiyosiy va iqtisodiy muammolar tobora avj olib borayotgan murakkab vaziyatda barcha davlatlar bilan teng huquqli va konstruktiv munosabatlarni yanada mustahkamlash, vazmin va oqilona ochiq tashqi siyosat olib borishga qaratilgan faoliyatini yanada yuksak bosqichlarda izchil davom ettiradi.

Akmal SAIDOV,
Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati,
akademik.

OQILALIK – OILA VA JAMIYAT BAXTINING KALITI

Bugungi shiddatli zamon bizdan nafaqat zamonaviy bilimlarni egallashni, balki ming yillik qadriyatlarimizni asrab-avaylashni ham taqozo etmoqda. Shu bois Yangi Oʻzbekistonda inson qadrini ulugʻlash, jamiyatda barqaror taraqqiyotni taʼminlash, xususan, mahallalarda sogʻlom muhit va oilalarni mustahkamlashga alohida eʼtibor qaratilmoqda.

Sarhisob

2022-yilda Oʻzbekiston Respublikasi Oila va xotin-qizlar qoʻmitasi huzurida tashkil etilgan “Oqila ayollar” harakati jamiyatda yangi maʼnaviy makon yaratishda xotin-qizlarning faolligini qoʻllab-quvvatlash, farzand tarbiyasi, oila, ayollar maʼnaviyatini yuksaltirishda jamoatchilikka, avvalo, yoshlarga tarbiyaviy taʼsir koʻrsata oladigan obroʻ-eʼtibori va katta hayotiy tajribaga ega boʻlgan, faol, tashabbuskor onaxonlarning saʼy-harakatlarini birlashtirishda muhim oʻrin tutmoqda.

Mazkur tuzilma qisqa vaqtda mahallalarimizning maʼnaviy suyanchiga, xotin-qizlarning esa yaqin maslahatgoʻyiga aylandi. U tajriba va donishmandlik maktabi sifatida hayotning past-balandini koʻrgan, bilim va fidoyi xotin-qizlarni birlashtirgan katta kuchdir. Uning tarkibida koʻp yillar iqtisodiyot, taʼlim, tibbiyot, huquq va boshqa turli sohalarida ishlagan nuroniyar, mahallaning obroʻli faollari jam boʻlgan. Harakatning asosiy vazifasi – oilalarda yuzaga kelayotgan muammolarga vaqtda yechim topish, yoshlarni gender tenglik asosida milliy anʼanalimiz ruhida, sabr-toqatli va masʼuliyatli qilib tarbiyalashdir.

“Oqila ayollar” harakati aʼzolari respublika va viloyatlar miqyosida muntazam targʻibot tadbirlari, malaka oshirish seminarlari, maʼrifiy vebinarlarni va amaliy treninglar oʻtkazib kelmokda. Bu orqali harakat ishtirokchilariga muammoli xonadonlar bilan ishlash, psixologik yondashuv, huquqiy maslahat berish, mahalla va fuqarolik institutlari bilan hamkorlik mexanizmlari toʻgʻrisida bilim va amaliy koʻnikmalar berib borilyapti. Shu maʼnoda aytask, harakat fuqarolik jamiyati institutining muhim mexanizmi sifatida shakllandi. Bunday yondashuv nafaqat muammoni aniqlash, balki uni yechish uchun resurslarni birlashtirish, sohalararo hamkorlikni kuchaytirish imkonini bermokda.

“Aql bilan oila qur”

Oilaviy ajralishlar – jamiyatning eng ogʻriqli nuqtasi. Shu bois harakat doirasida amalga oshirilayotgan “Aql bilan oila qur” loyihasi doirasida yuzlab profilaktik uchrashuvlar oʻtkazildi. Psixologlar, huquqshunoslar va din arboblari ishtirokida oʻtgan bu muloqotlar shunchaki suhbat emas, balki ajrim yoqasiga kelib qolgan koʻplab oilalarning qayta tiklanishiga, farzandlarning ota va ona

Rustam MAHMUDOVning
vafoti munosabati bilan chuqur hamdardlik izhor etadi.